

& IQTISODIYOT

*ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal*



OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari
08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr,
36 sahifa, iyun, 2025-yil.

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afforovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi

- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

Ways to Strengthen the Economy of Karakalpakstan	12
Isakov Janabay Yakypbayevich	
Sanoat korxonalarida ishlab chiqarish xavf-xatarlarini iqtisodiy baholash.....	18
Raxmatova M.G., Saidjonova Z.B	
Strategy For Attracting Investments By Expanding the Participation of Joint-Stock Companies in the Securities Market	23
Aytmuratova Ulbike Jalgasovna, Kutlymurat Zhalgasovich Aytmuratov, Raushan Nurlybay qizi Umirzakova	
O'zbekistonda eksportni sug'urtalash mexanizmlari: mavjud holat va takomillashtirish yo'llari	29
D.E.Qarshiev	



O'ZBEKISTONDA EKSPORTNI SUG'URTALASH MEXANIZMLARI: MAVJUD HOLAT VA TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI

D.E.Qarshiev

ISFT instituti PhD dotsenti

Orcid kodi:0009-0003-0473-4693

Annotatsiya: Ushbu maqolada eksport faoliyatini sug'urtalash bo'yicha ilg'or xorijiy tajribalar asosida O'zbekistonda eksport faoliyatini moliyalashtirish va sug'urtalash tizimini takomillashtirish masalalari ilmiy jihatdan tahlil etilgan. Shuningdek, eksportni sug'urtalash tushunchasi, uning iqtisodiy mohiyati, xalqaro va milliy amaliyotdagi qo'llanilishi, mavjud muammolar va ularni bartaraf etish bo'yicha taklif hamda tavsiyalar keltirilgan

Kalit so'zlar: eksport shartnomasi, eksport qaltisliklari, eksport sug'urtasi, eksport, tashqi savdo, eksportni moliyalashtirish, akkreditiv, faktoring, eksport shartnomasi bekor qilinishi xavfi.

Abstract: The article scientifically analyzes the improvement of the system of export financing and insurance in Uzbekistan based on the advanced foreign experience of export insurance. The concept of export insurance, its economic essence, application in international and national practice, existing problems, as well as proposals and recommendations for their elimination are presented.

Keywords: Key words: export contract, export risks, export insurance, export, foreign trade, export financing, letter of credit, factoring, risk of termination of export contract.

Аннотация: В статье научно проанализировано совершенствование системы экспортного финансирования и страхования в Узбекистане на основе передового зарубежного опыта экспортного страхования. Представлены понятие экспортного страхования, его экономическая сущность, применение в международной и национальной практике, существующие проблемы, а также предложения и рекомендации по их устранению.

Ключевые слова: Ключевые слова: экспортный контракт, экспортные риски, экспортное страхование, экспорт, внешняя торговля, экспортное финансирование, аккредитив, факторинг, риск расторжения экспортного контракта.

KIRISH

Jahon iqtisodiyotida globallashuv jarayonlari jadallashgan bir paytda mamlakatlar o'rtasidagi savdo-iqtisodiy aloqalar ham tobora murakkablashib, kengayib bormoqda. Xususan, eksport faoliyati har bir mamlakat iqtisodiy o'sishining muhim omili sifatida namoyon bo'lmoqda. Biroq tashqi bozorlarga chiqishda ishlab chiqaruvchilar va eksportyorlar turli xavf-xatarlarga duch kelmoqdalar. Jumladan: to'lovlarning kechikishi yoki umuman amalga oshmasligi, siyosiy xavflar, bozordagi o'zgaruvchanlik, valyuta kursining beqarorligi va boshqa omillar shular jumlasidandir. Bunday xavf-xatarlarni kamaytirish va tashqi bozordagi faoliyatni barqarorlashtirish uchun eksportni sug'urtalash mexanizmi muhim rol o'ynaydi.

Eksport sug'urtasi – bu tashqi iqtisodiy faoliyatda yuzaga keladigan moliyaviy va siyosiy xavflarni moliyaviy yo'l bilan bartaraf etish vositasi bo'lib, u davlat hamda xususiy sug'urta kompaniyalari tomonidan amalga oshiriladi. Xalqaro tajriba shuni ko'rsatmoqdaki, AQSH, Xitoy, Germaniya, Fransiya kabi rivojlangan mamlakatlarda eksport sug'urtasi milliy eksport strategiyasining tarkibiy qismi sifatida keng qo'llaniladi. Bu orqali nafaqat eksport hajmi oshirilmoqda, balki yangi bozorlarga chiqish va yangi hamkorlar bilan ishlash imkoniyatlari ham kengaymoqda.

Ushbu maqolada eksportni sug'urtalash tushunchasi, uning iqtisodiy mohiyati, xalqaro va milliy amaliyotdagi qo'llanilishi, mavjud muammolar hamda ularni bartaraf etish bo'yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar keng yoritiladi. Eksportni rag'batlantiruvchi sug'urta mexanizmlarini takomillashtirish orqali O'zbekistonning tashqi savdo salohiyatini oshirishga hissa qo'shish ko'zda tutilgan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Eksport faoliyatini sug'urtalash va eksport faoliyatini moliyalashtirishni ilmiy jihatlarini o'rgangan ko'plab xorijiy va MDH mamlakatalar olimlari shuningdek O'zbekistonlik olimlarning ham bir qancha ilmiy maqola va asarlari mavjud bo'lib biz ularni ko'pini ilmiy maqolani tayorlashda o'rgandik va tahlil qildik.

Abraham F., Dewit G tomonidan yoritilgan ilmiy maqola tahlil etildi¹. Shunindek S.Krummakerning "Eksport kredit sug'urta bozorlari va talab" deb nomlangan risola tahlil qilindi². V.I.Bartenevning "Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida xorijiy investitsiyalarni siyosiy xavflardan sug'urtalash" nomli ilmiy maqola tahlil qilingan.³

Yuqoridagi ilmiy manbalar tahliliga ko'ra, "Eksport-kredit agentliklari xalqaro savdo moliyasi bozorini barqarorlashtirishda hal qiluvchi rol o'ynadi va bu orqali kredit xavflarini kamaytirish hamda eksportchilarning raqobatbardosh bozorlarda to'lovni kechikib qabul qilish sharti bilan ishlashlariga sharoit yaratadi".

Xorijiy mamlakatlar, Yevropa davlatlarida eksport kredit sug'urtasi oddiy sug'urta polisidan ko'ra kengroq funksiyaga ega. Bu kompaniyalarga kechikkan to'lovlar va to'lovsizlik xavfini kamaytirish uchun zaruriy boshqaruv tizimini joriy etish imkonini beradigan, to'liq xavfni boshqarish vositasidir. Shu yo'l bilan, debitor qarz xavfi pasaytiriladi va tijorat kreditidan raqobatbardoshlik vositasi sifatida samarali foydalanish imkoniyati yaratiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ilmiy tadqiqot davomida mantiqiy va tarkibiy tahlil qilish, guruhlashtirish, o'zaro bog'liqlikni aniqlash va qiyosiy taqqoslash usullaridan samarali foydalanildi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi, Xalqaro savdo markazi (ITC), Jahon banki hamda Xalqaro valyuta jamg'armasi tomonidan e'lon qilingan raqamli ma'lumotlardan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Eksport kreditlarini sug'urtalash tashqi savdo faoliyatining barqarorligini ta'minlovchi muhim vositadir. U ishbilarmonlikni rag'batlantiradi, tashqi bozorlarga chiqishda moliyaviy kafolat beradi va milliy ishlab chiqaruvchilarning raqobatbardoshligini oshiradi. Shu sababli, O'zbekistonda ham eksportni sug'urtalash tizimini rivojlantirish muhim strategik vazifa hisoblanadi.

Eksport kreditlarini sug'urtalash tarixiy jihatdan Birinchi jahon urushi yakunlaridan so'ng shakllangan bo'lib, dastlab Yevropada milliy eksportni qo'llab-quvvatlash maqsadida maxsus davlat agentliklari tomonidan joriy etilgan. Xalqaro savdo aylanmasi hajmining o'sishi, yangi bozorlarning vujudga kelishi va global raqobatning kuchayishi natijasida eksport bilan shug'ullanuvchi korxonalar o'z tovarlarini kredit asosida yetkazib berishga majbur bo'lganlar. Chunki xalqaro bozorda raqobatbardosh bo'lish uchun tovarlarni kechiktirilgan to'lov bilan yetkazib berish shartlari tobora dolzarb ahamiyat kasb etgan.

Bugungi kunda esa xalqaro tijorat shartnomalarining taxminan 80 foizida tovar va xizmatlarni eksport qilish jarayonida qarz (kredit) asosida hisob-kitob qilish shartlari aks etgan.⁴

Eksport kreditlari tashqi savdo faoliyatini moliyalashtirishning muhim mexanizmi hisoblanadi va ular turli shakllarda amalga oshiriladi. Jahon amaliyotida eksport kreditlarining asosiy turlari quyidagi ko'rinishlarda ajratilmoqda:

Qisqa muddatli eksport krediti (Short-term Export Credit) – ushbu kredit muddati odatda 6 oygacha, ayrim hollarda esa 12 oygacha bo'lishi mumkin. Qisqa muddatli eksport krediti kundalik mahsulotlar, tez aylanuvchi iste'mol mahsulotlari (FMCG), xom ashyo va umumiy iste'mol tovarlarini moliyalashtirishga mo'ljallangan.

O'rta muddatli eksport krediti (Medium-term Export Credit) – bu kredit muddati 1 yildan 5 yilgacha belgilanadi. Ushbu kredit sanoat uskunalari, transport vositalari, qurilish texnikalari kabi kapital mahsulotlarni eksport qilish uchun ajratiladi. Ko'pincha bu turdagi eksport kreditlari davlat yoki nodavlat eksport kredit agentliklari tomonidan sug'urtalanadi.

Uzoq muddatli eksport krediti (Long-term Export Credit) – bu kredit muddati 5 yildan 10 yilgacha bo'lishi mumkin. Ba'zan loyiha muhimligiga qarab 10 yildan ham ortiq muddatga beriladi. Ushbu kredit turlari yirik infratuzilma loyihalari, elektr stansiyalari, aeroportlar, temir yo'llar, ishlab chiqarish komplekslarini qurish uchun ajratiladi. Bunday yirik kreditlar uchun odatda suveren kafolat (davlat kafolati) talab etiladi va ular sug'urta

1 Abraham F., Dewit G. Rasmiy eksport sug'urtasi orqali eksportni rag'batlantirish // Ochiq iqtisodiyotlar sharhi. – 2000. – T. 11. – S. 5-26.

2 Krummaker S. Eksport kredit sug'urta bozorlari va talab // Jahon savdo siyosati qo'llanmasi. – 2020. – S. 536-554.

3 Bartenev V.I. Evropa Ittifoqi mamlakatlarida xorijiy investitsiyalarni siyosiy xavflardan sug'urtalash: xalqaro taraqqiyotning talablari // Sovremennaya Evropa. – 2025. – №. 2 (130). – S. 65-78.

4 Briggs K. The Impact of Innovation on Financial and Insurance Services Exports // The BE Journal of Economic Analysis & Policy. – 2017. – T. 17. – №. 4. – C. 20160310.



hamda davlatlar o'rtasidagi bitimlar asosida amalga oshiriladi. Xavf darajasi yuqori bo'lib, siyosiy va iqtisodiy xatarlarni o'z ichiga oladi.

Kredit liniyalari (Lines of Credit) – eksportchi mamlakatdagi EXIMBANK yoki shu kabi agentlik tomonidan import qiluvchi davlatga yoki uning bankiga ajratiladi. Uning asosiy maqsadi – muayyan miqdorda mahsulot yoki xizmatlarni sotib olish uchun moliyaviy resurslar taqdim etishdir. Ushbu yirik kredit liniyalari orqali milliy eksportchilar o'z mahsulotlarini eksport qilish imkoniyatiga ega bo'ladi, import qiluvchi esa dastlabki bosqichda oldindan to'lov amalga oshirmasdan xaridni bajarishi mumkin.

Forfeiting (Forfeiting) – bu eksportchining to'lovni kechiktirgan importyor qarzi majburiyatini diskont asosida bankka sotishidir. Muddati odatda 180 kundan 7 yilgacha bo'ladi. Forfeitingning afzalligi shundaki, eksportchi o'z mablag'ini oldindan oladi, risk esa bank zimmasiga o'tadi.


Faktoring (Factoring) – bu eksportchining debitor qarzini maxsus moliyaviy tashkilotga sotishidir. U odatda qisqa muddatli bo'lib, 90–180 kun davom etadi. Faktoring orqali eksportchi pul oqimini barqarorlashtiradi va riskni boshqa tomonga o'tkazadi.

Jahon amaliyotida mavjud bo'lgan eksport kreditlarining turlari mahsulot va xizmatlar tabiatiga, bozordagi vaziyatga, mijoz bilan munosabatlarga hamda moliyaviy imkoniyatlarga qarab tanlanadi. Bugungi global bozorda sug'urta va davlat kafolati bilan ta'minlangan o'rta va uzoq muddatli eksport kreditlari muhim rol o'ynaydi. Ayniqsa, bu rivojlanayotgan davlatlar uchun zarur moliyaviy instrument hisoblanadi.

Eksport kreditlarini sug'urtalash – bu xalqaro savdodagi to'lovlarni bog'liq xavflarni kamaytirish uchun qo'llaniladigan moliyaviy vositadir. Davlat yoki xususiy eksport-kredit agentliklari (EKA) tomonidan taqdim etiladigan sug'urta qoplamalari tashqi bozorlarda yuzaga keladigan to'lovlardagi nosozliklar, siyosiy tavakkalchiliklar va moliyaviy o'zgarishlarga qarshi himoya vositasi bo'lib xizmat qiladi.

So'nggi yillarda eksport sug'urtasi xalqaro iqtisodiy jarayonlarda strategik ahamiyat kasb etib, hukumatlar va xalqaro institutlar tomonidan biznesni qo'llab-quvvatlash vositasi sifatida faol qo'llanilmoqda.

Berne Union – bu eksport sug'urtasi bilan shug'ullanuvchi xalqaro tashkilot bo'lib, uning a'zolari tomonidan jahon bo'ylab eksport sug'urtasi faoliyati amalga oshirilmoqda. So'nggi besh yil ichida a'zolar tomonidan sug'urtalangan yangi shartnomalar soni minglab kompaniyalar ishtirokida keskin oshgan. Yevroittifoq, AQSH va Xitoyda yuqori sug'urta qoplamalari qayd etilgan. Ayniqsa, siyosiy va iqtisodiy xavflarni sug'urta qilishga bo'lgan talab jadal sur'atlarda ortmoqda (1-rasm).



1-rasm: Berne Union tomonidan 2019-2023-yillarda eksport faoliyati sug'urtasi uchun to'langan sug'urta qoplamalari (trln.AQSh dollarida)⁵

Barcha yillarda ijobiy o'sish kuzatildi. Bu global savdo hajmining kengayishi hamda sug'urta orqali xavflarni diversifikatsiya qilishga bo'lgan ehtiyojning ortib borishi bilan izohlanadi.

COVID-19 pandemiyasidan so'ng xalqaro savdoda xavflar kuchaygani sababli sug'urtaga bo'lgan talab ham ortdi. Bu holat -2020-yildagi 8,3 foizlik o'sish misolida yaqqol ko'rinadi.

-2023-yilda esa yanada yuqori o'sishga erishildi. Ushbu yilda sug'urta qoplamalari 3,12 trillion AQSH dollariga yetdi va bu avvalgi yillarga nisbatan tezroq o'sishni ifodalaydi. Bunday sur'at tashqi bozordagi beqarorliklar – geosiyosiy vaziyat, energiya narxlari va inflyatsiya bilan bog'liq.

Berne Union a'zolari har yili 2,5 trillion AQSH dollari miqdorida sug'urta qoplamalari taqdim etadilar. Bu jahon chegaralararo savdosining taxminan 13 foizini tashkil etadi.

Berne Union a'zolari tomonidan so'nggi yillarda kredit sug'urtasi orqali qo'llab-quvvatlangan yirik loyihalar quyidagilardan iborat:

- Janubi-Sharqiy Osiyodagi 6 mamlakatda 105 MVt quvvatga ega quyosh energiyasi loyihasi;
- Peruda 5 milliard dollarlik Lima metro liniyasini qurish loyihasi;
- Buyuk Britaniyada dunyodagi eng yirik biomassa yoqilg'isida ishlovchi elektr stansiyasi;
- Senegalda oflayn quyosh yoritish loyihasi.⁶

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan eksport faoliyati bir qator sug'urta tashkilotlari tomonidan sug'urtalanmoqda. Mamlakat sug'urta bozorida eksport va import operatsiyalari asosan "O'zbekinvest" EISK tomonidan sug'urtalanmoqda. Mazkur kompaniya Berne Union ittifoqi a'zosi hisoblanadi va eksportdagi qaltisliklarni sug'urtalash borasidagi faol amaliyoti bilan milliy sug'urta bozorida ajralib turadi.

"O'zbekinvest" EISK tomonidan mahsulot yetkazib beruvchining krediti sug'urtasi joriy qilingan bo'lib, ushbu sug'urta vositasi orqali eksport qiluvchi chet ellik xaridorga mahsulotni kredit asosida yetkazib beradi. Bu holatda xaridor tomonidan belgilangan muddatda to'lovni bajarmaslik xavfi yuzaga keladi. Shu sababli, "O'zbekinvest" EISK eksportchining mazkur tijorat xavfini sug'urtalaydi. Bu instrument qisqa muddatli eksport kredit sug'urtasi (STECI) turiga kiradi. U xalqaro savdoni rag'batlantirish, kichik va o'rta biznes subyektlari uchun xavfsiz shartnoma tuzish imkonini yaratish orqali moliyaviy himoya taqdim etadi. Sug'urta xizmati to'lovning kechiktirilishi, defolt yoki bankrotlikka qarshi himoya vazifasini bajaradi.

Shuningdek, "O'zbekinvest" EISK akkreditiv bo'yicha majburiyatlarni bajarmaslikdan sug'urtalash xizmatini ham ko'rsatmoqda. Bu sug'urta chet ellik xaridor tomonidan taqdim etilgan bank akkreditivining amalga oshmaslik xavfiga qarshi xizmat qiladi. Akkreditiv to'lovning kafolatlangan usuli hisoblanganiga qaramay, ba'zida bankning moliyaviy holati yoki siyosiy xavflar sababli to'lov bajarilmasligi mumkin. "O'zbekinvest" EISK bu riskni sug'urtalaydi va bank defoltiga qarshi moliyaviy himoya yaratadi. Mazkur mexanizm jahon amaliyotida confirmation insurance of L/C sifatida tanilgan.

Bundan tashqari, "O'zbekinvest" EISK quyidagi eksport xavflari bo'yicha sug'urta xizmatlarini tashkil etgan:

- eksportchining aylanma mablag'larini to'ldirish uchun ajratilgan kreditni sug'urtalash;
- "xaridorga kredit" turi bo'yicha eksport kreditlarini sug'urtalash;
- qisqa yoki uzoq muddatli debitor qarzdorlikni sug'urtalash;
- eksport faktoringini sug'urtalash;
- logistika xavflarini sug'urtalash;
- import shartnomasi bo'yicha avans to'lovini sug'urtalash;

eksport shartnomasining bekor qilinishi xavfini sug'urtalash.

"O'zbekinvest" EISK tomonidan joriy etilgan ushbu sug'urta mexanizmlari nafaqat eksport va import faoliyatini himoya qilishga xizmat qiladi, balki ushbu faoliyatni moliyalashtirayotgan banklar, investorlar va faktoring tashkilotlari uchun ham ishonchli muhitni yaratadi. Bu xizmatlar O'zbekistonda milliy eksportni rag'batlantirish, kichik biznes subyektlarining tashqi bozorlarga chiqishini yengillashtirish va tashqi iqtisodiy xavflardan himoyalashda strategik ahamiyatga ega.

Shu bilan birga, O'zbekiston sug'urta bozorida eksport faoliyatini sug'urtalash bo'yicha qator institutsional va tashkiliy muammolar mavjud. Ulardan biri – milliy eksport-kredit agentligining yo'qligidir. Ayni vaqtda sug'urta

6 Lee J. An Analysis of the Relation between Global Economic Trends and Export Insurance //무역금융보험연구 (구 무역보험연구) . – 2023. – T. 24. – №. 5. – C. 3-16.



faoliyati asosan umumiy sug'urta kompaniyalari tomonidan amalga oshirilmoqda. Eksportni kompleks sug'urta-lashga ixtisoslashgan maxsus tashkilot mavjud emas.

Shuningdek, sug'urta kompaniyalari bilan banklar o'rtasidagi hamkorlik mexanizmi zaif, eksport kreditlarini qo'llab-quvvatlash bo'yicha tizimli sheriklik shakllanmagan. Xususi sug'urta kompaniyalarining eksport sug'ur-tasiga qiziqishi past. Buning sababi – xavf darajasining yuqoriligi va uzoq muddatli to'lov majburiyatlarining mavjudligidir. Natijada xususi sektor boshqa, kamroq xavfli sug'urta yo'nalishlariga e'tibor qaratmoqda.

Eksport sug'urtasi bo'yicha kadrlar va ekspertlar yetishmovchiligi ham dolzarb muammo bo'lib, ayniqsa andarrayting, risklarni baholash va shartnomaviy ekspertiza sohalarida mutaxassislar tanqisligi sezilmoqda.

Mamlakatda sug'urta madaniyati va sug'urta faoliyatiga ishonch darajasi pastligicha qolmoqda. Ko'plab korxonalar sug'urtani ortiqcha xarajat sifatida baholamoqda.

Eksport sug'urtasiga oid maxsus qonunchilik asosi mavjud emas. "Sug'urta faoliyati to'g'risida"gi qonun va unga oid normativ-huquqiy hujjatlar faqat umumiy sug'urta faoliyatini tartibga soladi. Eksport sug'urtasi alo-hida me'yoriy asosda tartibga solinmagan. Shuningdek, xalqaro tajribadagi kabi siyosiy, geosiyosiy va suveren xavflardan himoya qilish tizimi mavjud emas. Sug'urta bilan bog'liq nizolarni hal qilish bo'yicha sud-arbitraj amaliyoti ham aniq emas, eksport sug'urtasiga oid da'volarni ko'rib chiqish mexanizmlari yetarli darajada shak-lanmagan.

Ba'zi davlatlarda davlat kafolatidagi sug'urta rezervi mavjud bo'lsa-da, O'zbekistonda bunday tizim joriy etilmagan.

Sug'urta faoliyatida mukofot va foiz stavkalari yuqori bo'lib, ayniqsa eksport sug'urtasi bo'yicha mavjud stavkalar jahondagi o'rtacha stavkalarga nisbatan yuqori hisoblanadi. Bu esa eksportchilar uchun ushbu xizmatni jozibador qilmaydi. Shuningdek, sug'urta qoplamalari hajmi cheklangan, milliy sug'urta kompaniyalar-ining kapital salohiyati eksport shartnomalarini to'liq qoplashga yetarli emas.

Banklar tomonidan eksport faoliyatini moliyalashtirish jarayonida sug'urta xizmatlariga e'tibor past bo'lib, sug'urta kredit berishda asosiy omil sifatida baholanmayapti.

Xalqaro sug'urta tashkilotlari bilan hamkorlik darajasi ham sust. Xususan, Berne Union, ICISA kabi tashki-lotlarga a'zolik, ularda loyihalarda qatnashish tajribasi yetarli emas.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'zbekistonda eksport sug'urtasini takomillashtirish uchun quyidagi taklif va tavsiyalarni ilgari surish muhim:

Milliy eksport-kredit agentligini (EKA) tashkil etish zarur. Xalqaro amaliyotga ko'ra, dunyoning 100 dan ortiq davlatida eksportni sug'urtalovchi maxsus davlat agentliklari mavjud (masalan, EXIM USA, Sinosure, Euler Hermes, Bpifrance). O'zbekistonda eng yirik va faol sug'urta tashkilotlaridan biri hisoblangan "O'zbek-invest" EISK negizida mustaqil EKA tashkil etish va uni mamlakatda olib borilayotgan iqtisodiy siyosat bilan integratsiyalash maqsadga muvofiqdir.

Milliy sug'urta bozorida siyosiy xavflarni sug'urtalashni kengaytirish zarur. Jahon tajribasida siyosiy xavflar (ekspropriatsiya, valyuta konvertatsiyasi cheklovi, noqonuniy hibsga olish, qurolli to'qnashuv) eksport uchun asosiy tavakkalchiliklardan biri hisoblanadi. Xususan, Xitoy va Fransiya eksport-kredit agentliklari bu turdagi risklarni alohida modul sifatida sug'urtalash tizimiga qo'shgan.

Qisqa va uzoq muddatli eksport kredit sug'urta xizmatlarini rivojlantirish kerak. Berne Union a'zolarining 60 foizi qisqa muddatli (≤ 1 yil), 30 foizi esa uzoq muddatli (1–20 yil) eksport kreditlarini sug'urtalash bilan shug'ul-lanadi. O'zbekiston eksportchilari uchun ikkita maxsus dastur – qisqa muddatli mahsulot eksport sug'urtasi va uzoq muddatli investitsiyaviy kontraktlar uchun eksport sug'urta qoplamasi joriy etilishi maqsadga muvofiq.

Logistika va bojxona xavflarini sug'urtalash xizmatini rivojlantirish lozim. Xalqaro amaliyotda savdo yo'lak-laridagi uzilishlar va transport kechikishlari tovarlarni yetkazib berishda muammolar keltirib chiqaradi. Ko'plab davlatlarda bu holat "cargo insurance" orqali sug'urtalanadi. O'zbekistonda eksport-import logistika jarayon-larida yuzaga keladigan yo'qotishlar, tovarning kechikishi yoki hibsga olinishi kabi risklarni qamrab oluvchi maxsus integral transport sug'urtasi dasturini yaratish zarur.

Ushbu takliflar xalqaro institutsional tajriba asosida O'zbekiston eksport faoliyatidagi xavflardan himoya tizimini kuchaytiradi. Bu esa eksportchilarni rag'batlantirish va ularni moliyalashtirish imkoniyatlarini kengay-tiradi. Takliflarning amalga oshirilishi mamlakatimiz yalpi ichki mahsulotida tashqi savdo ulushining ortishiga xizmat qiladi. Bundan tashqari, kichik va o'rta tadbirkorlik subyektlarining yangi bozorlarga chiqishiga turtki bo'ladi hamda xalqaro investitsiyalarda ishonchli himoya muhitini shakllantiradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining -2018-yil 20-dekabrdagi qarori. "Eksportga ko'maklashish va uni rag'batlantirishni kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida".
2. Lee J. An Analysis of the Relation between Global Economic Trends and Export Insurance // 무역금융보험연구 (구 무역보험연구). – 2023. – Т. 24. – № 5. – С. 3–16.
3. Briggs K. The Impact of Innovation on Financial and Insurance Services Exports // The BE Journal of Economic Analysis & Policy. – 2017. – Т. 17. – № 4. – С. 20160310.
4. Сплетухоу Ю. А. Страхование экспортных кредитов: зарубежный опыт // Финансовый журнал. – 2014. – № 3 (21). – С. 150–160.
5. Васютченко И. Н. Государственная поддержка экспорта: мировой опыт // Terra Economicus. – 2010. – Т. 8. – № 1–3. – С. 243–250.
6. Umarov Z. Forfeiting – xalqaro savdoni kreditlash usuli // Moliya va bank ishi. – 2022. – Т. 8. – № 3. – С. 97–105.
7. Намозова Қ. Перспективы развития страхования предпринимательских рисков в Узбекистане // Страховой рынок Узбекистана. – 2024. – Т. 1. – № 7. – С. 7–10.
8. Qarshiyev K. O'zbekistonda eksportni sug'urtalash mexanizmlarini yanada kengaytirish yo'nalishlari // Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot. – 2024. – Т. 1. – № 1.
9. Berne Union rasmiy sayti: <https://www.berneunion.org/Stub/Display/17>

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. № 6

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100